

## VAQTNING QADRI

*Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy hodimi  
Qosimjonova Sadoqat*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada bugungi kunda Vaqtni qadrini bilgan odam havoiiy-nafsidan tiyilaolishi haqida soʻz ketadi. Vaqt qadrini bilgan odam buyuk odam boʻlishga haqligigi, har birimizni isrof vasvasasi har on, har daqiqa, har qadamda taʼqib qilinishi, isrofdan saqlanish lozimligini bir nafas ham unitmasligimiz keng nomoyon etilgan.

### **Annotation**

This article talks about how a person who knows the value of time can refrain from lust. It is well known that a person who knows the value of time has the right to be a great person, that the temptation to waste is pursued every moment, every minute, at every step, and that we must not forget even a breath that we should avoid waste.

**Kalit soʻzlari:** vaqt, inson, isrof, yoshlik, asr, ilm, hunar, orzu, inson, soat, jamiyat.

**Key words:** time, human, waste, youth, century, science, craft, dream, man, clock, society.

Oʻtgan vaqtning ortga qaytmasligini va oʻrniga almashmasligini bilmaydigan odam yoʻq. Otilgan oʻq iziga qaymagani kabi umr ham iziga qaytmaydi. Boy berilgan vaqtni oʻrnini toʻldirib, hotirjam yashayotgan insonni kim koʻrgan? Koʻp keksalarni uchramiz, ular yoshlik davrlarining yana bir bora qaytishini orzu qiladilar. Lekin bu amalga oshmaydigan orzu, bu faqat fantastik asarlarda uchraydi. Shoir aytadiki:  
Koshki qaytsaydi ortga agar bir kunga yoshlik,  
Unga ayardim boshga nelar soldi keksalik.

Oʻtgan asrning ohirrogʻida onamning yetmish besh yoshga toʻlganligini bayram qilgandik. Oʻshanda sanʼatkorlarni taklif qilib, rosa hursandchilik qilganimiz esimda. Eslashimga sabab shuki, raqs tushayotgan aka-uka, opa-singil qarindoshlarning hammasi huddi piyoz toʻgʻragan odamdek koʻzlari yoshga toʻlgan edi. Men bu fenomenni tushinmay garang edim. Endi bilsam oʻtayotgan vaqt ortga qaytmasligi mumkin onamni hayot shamlari oʻchayotgani, inson ega boʻlgan narsalarining eng nafisi vaqt ekanligi edi ha, u hayotga hoh bu shaxs hoh bu jamiyat boʻlsin asl sarmoya hisoblanadi.

Bir kecha kunduzda odamga 24 soat vaqt bor. Shunda 8 soati uyquga ajratilsa demak, 16 soatga oʻzimiz xukmronmiz. Bu vaqtni qanday "sovurish" oʻz

ixtiyorimizda "sovorish" so'ziga atayin urg'u berdik. Chunki, ayrim odamlar ko'p vaqtlarini sovradilar. Bir nonni yarmini yeb, yarmini tashlab yuborsangiz – isrof. Bu qilig'ingizni ko'rgan bazi odamlar tanbex beradi, bazilari sizdan nafratlanadi, to'g'rimi? Ho'sh, vaqtchi? Vaqtning isrofi bormi?

Bir eslaylik uylarimizda elektr chirog'ini keraksiz paytda o'chirib qo'yishni unitamiz, yoki erinamiz. Televizorni brov ko'rmasada ishlab turaveradi. Suvni ham bekordan bekorga oqizib qo'yamiz. Yarim litrli choynakga choy damlash uchun uch litrli choygumni gazga qo'yamiz, undan tashqari gazni o'chirib yoqishga erinib pasaytirib qo'ya qolamiz. Gaz soatlab yonib yotadi. Bazan choygum erib ham ketadi-a? Oziq ovqatlarchi? Bir kishi "qotgan non, achigan ovqat isrof bo'lmaydi, molga beriladi" –deydi. Ha shunday hollor bor. Biroq molga berilmaydi, axlatga tashlanayotgan non va taomlar ozmi? Ikkinchidan, non va ovqat inson uchun berilgan ne'mat! Mol u qo'ying nasibasi boshqa.

Atrofimizdagi qaysi ne'matga qaramaylik isrof bolayotganini ko'ramiz. Bularni moddiy boylik isrofi desak, biri uni unitishimiz mumkin bo'lmagan yana bir isrof bor. Bu vaqt isrofidir. Vaqtning isrofi-umrning isrofi, demak. Umr behuda sarflanib bo'ldimi, demak, odam yaxshi ishlarni amalga oshirolmabdi. Odamlar uchun, jamiyat uchun foyda bermabdi. Vaqtning isrofi-mevasiz daraxt kabi umr kechirishdir. Kishini bir ilimning yoki hunarni o'rganib so'ng boshqa ishlar bilan shug'illanib yurishi ana shu isrofga kiradi. Menga bir odamni maqtab: "Ishda ziyrak odam, beshinchi qavatga nechta zina bosib tushganicha biladi", deyishdi. Men esa ajablandim, zinaning nechtaligini bilish shartmi? Shunga isrof bo'lgan zehni va hotirasini foydaliroq narsaga sarf qilsa bo'lmasmikan? Bu narsani jinoyatga doir tekshiruv o'tkazivchi bilishi zarurdir. Lekin mehmonga kelgan odamning "uyingizga 150 ta zinani bosib ko'tarildim" deyishidan ma'no bormi? Yoki "ishimga yarasha ehtirom qiling" , demoqchimi? Undan ko'ra yuqoriga ko'tarilganiga tasbeh aytib savobini mezbonga bag'ishlagani durusroq emasmi?

Yaxshi ishlarni qilishga shoshilish kerak. Shoshilish-fazilat, shoshqoloqlik-illatdir. Bu fazilatni egallashda vaqtni qadriga yeta olgan olimlar hayotidan o'rnak olsa arziydi. Bunday odamlar o'zlarini turgan mavqeyidan yana ham go'zalroq darajaga intiladilar. Ish jihatdan ularning bugungi kechasidan, ertasi bugunidan afzalroq bo'lar edi. Ular vaqtlarini manfa'atli ilm tehsil qilishga yoki boshqalarga foyda keltirishga ishlatishlaridan tashqari, qisqa muddatni ham behuda sarf etishdan qizg'onishar edi. Toki o'zlari sezmay qolib, umirlari bo'sh ishlarga sarf bo'lib, gard-u g'uborga, ko'pikga aylanib qolmasin. Fursatni g'aniymat bilgan odam vaqtdan unimli foydalana oladi. Vaqtni qadrini bilgan odam havoij-nafsidan tiyila oladi. Vaqt qadrini bilgan odam buyuk odam bo'lishga haqlidir.

Har birimizni isrof vasvasasi har on, har daqiqa, har qadamda ta'qib qildi. Demak, isrofdan saqlanish lozimligini bir nafas ham unitmasligimiz shart.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ulamolar nazdida vaqting qadri
2. Vaqat qadri
3. Bebaho vaqt qadri